

## SPIRITUAL THRONES IN THE DEVELOPMENT OF MANKIND

SAPARNIYAZOVA ZUXRA ABDULLAEVNA

Teacher of Nukus State Pedagogical Institute

**Annotation**

This article will focus on spiritual threats in the processes of globalization in our days, their significance and role in the education of young people.

**Keywords:** younger generation, literature, folklore, future, education, personnel, education, factor, globalization

XX asr voqealari shundan guvohlik berib turibdiki, tahdidlarni toifalashda ularni shartli ravishda iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ekologik, demografik, mafkuraviy, harbiy, tabiiy, iqlimiylar va ma`naviyat tahdidlarga ajratib ko`rish va tahlil etish mumkin. Bu borada globallashuvning salbiy oqibati sifatida yoshlarimizning oriyat, hayo, ibo, uyat kabi ezgu insoniy fazilatlariga ma`naviy taxdid solish orqali ularda axloqsizlik, behayolikni targ'ib etish nazarda tutilgan, shuningdek buning zamirida ganimlar tomonidan moddiy boylik orttirish ham ko`zda tutilgan.

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch» nomli asarlarida yoshlarimiz bizning nafaqat ishonchimiz va kelajagimiz, balki bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi ekanligi, hal qiluvchi kuch esa yengilmas, yengilmas kuch yuksak ma`naviyatlari shaxs timsolida namoyon bo`lishi har jihatdan asoslab berildi. Ayni zamonda, «Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo`lmasligi, farzandlarimizniig bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo`lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma`naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zbo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma`naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrılib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin»[Karimov:4]ligi xavfining oldini olish choralarani aniq ko'rsatib berildi. Shuningdek, asarda yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma`naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'yanan olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo`lib kelgani, bugun ham e'tiborimiz markazida turgannning alohida -ta'kidlangani e'tiborlidir.

«O`zbekiston – yagona vatan» degan shior ostida tinch-totuv hayot kechirmoqdamiz. Eng asosiy yutuqlarimizdan biri, chorak asr ichida xalqimizning ongini uyg'otib, ma`naviy dunyomizni tikladik. Inson kuch-kydratini qaerdan oladi, degan azaliy savol bor. Va unga tarixdan, tajribadan kelib chikadigan javob ham borki, bu borada ma`naviyatdan bo'lak mustahkam tayanch yo'q. Zero, birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ma`naviyat-inson va xalqning, jamiyat va mamlakatning bebabho boyligi, ma`naviyatsiz hech qachon g'alaba, yutuq, baxt-saodat bo`lmaydi. Binobarin zo'rovonlikka asoslangan har qanday yovuz kuch qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga bo'yundirmoqchi bo'lsa, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalo uni qurolsizlantirishga, ya'n eng katta boyligi bo'lgan tarixi, ma`naviyatidan ayirishga urinadi. O'tmishda bunga misollar juda ko'p [J.Bazarbaev.2]

Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli noan`anaviy tahdid eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta`sir o`tkazish orqali millatlarning qadriyatlari va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta`sir ko`rsatadigan ma`naviyat tahdidlar hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov ma`naviy tahdid muammosiga o'z asarlarida alohida e'tibor qaratib, “Ma`naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma`nodagi erkin inson bo`lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko`zda tutadigan mafkuraviy, g`oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim”, - deb ta'kidlagan edi.

Demak xalqimiz ma`naviyatini asrash va uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodni turli zararli g`oya va mafkuralar ta`siridan, bir so`z bilan aytganda, ma`naviy tahdidlardan himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Inson tarbiya ko`rib, muayyan odob va ahloq me`yorlarini , bilim va ilmlarni egallaydi, mehnat qilib tajriba orttiradi, kasb-hunar sohibi bo`ladi, malaka orttiradi, o`z qobiliyati va iste`dodini biror sohada to`la namoyon etish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Aynan ahloq, odob ,bilim, iste`dod zamirida e`tiqod, ixlos, vijdon, iymon shakllanadi. Iymon va e`tiqod uzviy aloqadarlikda keladi va biri ikkinchisini to`ldiruvchi component vazifasini o`taydi. Iymon yoshlarimiz uchun hayotda to`g`ri yo`l topishning muhim omili hisoblanadi. Iymonga asoslangan ruhiy holatlarning mazmuni, ahamiyati shaxs ma`naviy kamolot darajasi bilan belgilanadi. Muhimi shundaki, iymon e`tiqod asosida barqarorlashib borgach, yoshlarimizga unga yurakdan ixlos quyish, ajodolarimiz merosiga, milliy qadiriyatlarga ihlosmandlik ham shakllana beradi.

Inson ma`naviyatini o`z izmiga solishga qaratilgan turli tahdid, xavf – xatarlar yalpi globallashuv jarayonlari ta`sirida, axborot olamidagi yangiliklar bilan niqoblangan holda jamiyat hayotiga shu qadar shiddat va katta kuch bilan kirib kelmoqdaksi, ularning tuzatib bo`lmaydigan zararini hamma ham anglay olmaydi, buni faqat keng fikrlaydigan, bu buzg`unchi xavfli ofatning mohiyatini anglay oladigan odamlargina tushunib etadilar.

Ma`naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar, tuyg`ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmuidir. Chunki “Tahdid” so`zi xavf-xatar, xuruj va buzish ma`nolarini anglatadi. Shu ma`noda ma`naviy tahdidlar shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar hisoblanadi.

Bundan maqsad shaxsning ma`naviy- axloqiy olamini buzish, o`z vatani va jamiyatiga nisbatan yovuzlik fikrini uyg`otish, milliy axloqiy qadriyatlarni aynitish, o`zgalar jamiyatini ideal deb bilish ko`nikmasini hosil qilish, zararli odatlarga xuruj qo`yish. Diqqat qilsak ma`naviy tahdidlarning barcha turi nosog`lom turmush tarzi bilan bog`liqligiga va u mafkuraviy nuqtai nazardan eng xavfli omil ekanligiga amin bo`lamiz. Chunki uning negizini shaxs tarbiyasini izdan chiqarishga qaratilgan zararli g`oya tashkil etadi.

Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, bugungi kunda ma`naviy tahdidlar quyidagi illatlarni targ`ib qilayotgani bilan namoyon bo`lmoqda: xudbinlik, nopolik, nafs qutqusiga uchish, huzur-halovatga berilish, engil-elpi umr kechirishga da`vat, giyohvandlik, mutaasisiblik, tajovvuzkorlik, molu-dunyoga o`chlik, axloqiy buzuqlik, zo`ravonlik, axloqsizlikni madaniyat deb bilish, va aksincha asl ma`naviy qadriyatlarni eskilik sarqiti deb qarash, loqaydlik, mahalliychilik, hasadgo`ylik, baxllik, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda bugungi kunda siyosiy, xuquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda keng ko'lamli isloxtatlar davom etayotgan davrda yoshlarimizga mazkur isloxtarlarning mazmun mohiyatini teran tushuntirish, kechayotgan jarayonlarda faol ishtirok etishni ta'minlash, shubhasiz tarakqiyt yo'limizdagagi katta fazifalarimizdan biridir.

### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Karimov I.A.Yuksak ma`naviyat-Engilmas kuchT., Ma`naviyat , 2008, 13-14 b.
- 3.Yo`ldosheva S.M. Sog`lom turmush tarzi – tahidlarga qarshi kurash omili sifatida. Sog`lom turmush tarzini shakllantirishda axloqiy qadriyatlarning o`rni. // T.:2009. 191 b.
- J.Bazarbaev. «Ma`naviyatli inson hech kimga qaram bo`lmaydi» «Qoraqalpog'iston tongi» gazetasi № 35 (1200) 4-avgust 2016 yil.
- 4.Abdumanapovna S. A. The contemporary language studies with corpus linguistics //Proceedings of the 2nd International Conference on Digital Technology in Education. – 2018. – C. 82-85.
- 5.Abdumanapovna S. A. The Use of Technology in Corpus Linguistics //2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – IEEE, 2019. – C. 1-4.
- 6.Abdumanapovna S. A. The Applicability of Corpus Linguistics in the Field of Linguistics //2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – IEEE, 2019. – C. 1-3.
- 7.Abdumanapovna S. A. The Contemporary Language Studies with Corpus and Computer Linguistics //2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – IEEE, 2021. – C. 1-4.
- 8.Abdumanapovna S. A. Using Corpus-Based Data To Linguistically Investigate Absolute And Loose Synonyms //Int. J. of Aquatic Science. – 2021. – T. 12. – №. 3. – C. 2886-2899.
- 9.Sharipova A. A. The Role of Stylistic Synonyms in Language and Culture //Academy Journal. – 2018. – №. 8. – C. 10-15.
- 10.Sharipova A. A. Transformation as a basic concept in translation (analytical aspects) //European Journal of Humanities and Social Sciences. – 2017. – №. 2. – C. 39-42.